

**CHET EL ELEMENTI BILAN MURAKKABLASHGAN NIKOH MUNOSABATLARINI  
HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALAR**

**Shukurova Ozoda Odil qizi**

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Xususiy huquq 4-bosqich talabasi.*

[olatipova513@gmail.com](mailto:olatipova513@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh munosabatlariga doir masalalar keng miqyosda muhokama qilinadi. O'zbekiston, Fransiya, Yaponiya, Bolgariya kabi bir nechta xorijiy davlatlarning tajribasi o'r ganiladi. Bir nechta xorijiy davlatlardagi nikohga layoqatlilik, nikohni haqiqiy emas deb topish va uni tugatish masalalari atroflicha muhokama qilinadi va bir-biri bilan taqqoslanadi. Nikoh munosabatlarini tartibga solish borasidagi Minsk konvensiyasi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidagi bir qancha normalar tahlil qilinadi. Nikohga kirishishda , uni haqiqiy emas deb topish yoki tugatish bo'yicha kollizion norma sifatida qaysi davlat qonunchiligi tanlanishi kerakligi bo'yicha yechim beriladi. Xullas, chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh munosabatlari bo'yicha xalqaro hujjatlar,milliy qonunchilik va nazariy adabiyotlar yordamida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** soxta nikohlar, aralash nikohlar, "oqsoq nikoh" tushunchasi, nikohga kirishish, konsullik nikohlari, nikohni haqiqiy emas deb topish, nikohni tugatish, kollizion norma.

**ISSUES OF LEGAL REGULATION OF MARITAL RELATIONS COMPLICATED  
BY A FOREIGN ELEMENT**

**Shukurova Ozoda Odil's daughter**

*Tashkent State Law University*

*4th level student of private law.*

[olatipova513@gmail.com](mailto:olatipova513@gmail.com)

**Annotation:** In this article, the issues of marital relations complicated by the foreign element are discussed on a large scale. The experience of several foreign countries such as Uzbekistan, France, Japan, and Bulgaria is studied. The issues of legal capacity, annulment and dissolution of marriage in several foreign countries are discussed and compared in detail. Several norms of the Minsk Convention on the regulation of marital relations and the Universal Declaration of Human Rights are analyzed. When entering into a marriage, a decision is made as to which country's legislation should be chosen as the conflicting norm for its annulment or termination. Therefore, it is analyzed with the help of

**Key words:** *fake marriages, mixed marriages, the concept of "lame marriage", entering into marriage, consular marriages, annulment of marriage, termination of marriage, collision norm.*

## **ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ БРАЧНЫХ ОТНОШЕНИЙ, ОСЛОЖНЕННЫХ ИНОСТРАННЫМ ЭЛЕМЕНТОМ**

**Шукурова Озода дочь Одила**

*Ташкентский государственный юридический университет*

*Студент 4 курса частного права.*

**olatipova513@gmail.com**

**Аннотация:** В данной статье масштабно обсуждаются вопросы супружеских отношений, осложненных иностранным элементом. Изучен опыт ряда зарубежных стран, таких как Узбекистан, Франция, Япония, Болгария. Подробно рассмотрены и сопоставлены вопросы дееспособности, аннулирования и расторжения брака в ряде зарубежных стран. Анализируются некоторые нормы Минской конвенции о регулировании брачных отношений и Всеобщей декларации прав человека. При заключении брака принимается решение о том, законодательство какой страны следует выбрать в качестве коллизионной нормы для его расторжения или прекращения. Поэтому он анализируется с помощью международных документов, национального законодательства и теоретической литературы по вопросам брачных отношений, осложненных иностранными элементами.

**Ключевые слова:** *фиктивные браки, смешанные браки, понятие «хромой брак», заключение брака, консульские браки, расторжение брака, прекращение брака, коллизионная норма.*

**Kirish.** Chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh munosabatalari bir qator normalar bilan tartibga solinadi. Bu hozirgi kun talabi, sababi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va chet el fuqarolari, fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'rtasida nikoh munosabatlari soni ortibn borgan sari, davr ushbu munosabatlarni tartibga soladigan normalarning ham takomilini taqazo etadi. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining sakkizinch bo'limi ham chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 20.10.2023-yildagi 550-soni “Nikoh, oila va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to‘g‘risida” Qarori va shu kabi bir qancha normative-huquqiy hujjatlar nikoh munosabatlari bilan bog'liq normalarni o'z ichiga qamrab oladi. Har bir normative-

huquqiy hujjat va shu munosabatga doir xalqaro shartnomalar, chet davlat qonunchiligi bilan bizning qonunchiligidagi o'rtasidagi qiyosiy tahlillarni ushbu maqolada batafsil tahlil qilamiz.

**Muhokama va natijalar:**

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 234-moddasiga asosan, O'zbekiston Respublikasi huquqida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lman shaxslar ushbu hududda oilaviy munosabatlarga kirishishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan bir xil huquq va majburiyatlarga ega. Demak, ushbu normada O'zbekiston Respublikasi hududida tuzilgan nikohlar, nikohlanuvchilardan biri O'zbekiston fuqarosi bo'lsa, kollizion norma sifatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi qo'llaniladi. Biroq shu o'rinda bir savol tug'iladi, ya'ni oilaviy munosabatlarga kirishish boshqa davlat hududida O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bilan amalg'a oshgirilganda, O'zbekiston qonunchiligi mazkur nikohni tan oladimi yoki qaysi davlat qonunchiligi kollizion norma sifatida maydonga chiqadi, yoki bo'lmasa bunga doir biror xalqaro shartnoma yoki konvensiya qabul qilinganmi? Xullas bir qator savollar yechim berilishi uchun ko'ndalang turibdi. Chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh munosabatlarini batafsil tahlil qilamiz. Ushbu munosabatlarni tartibga solishda har bir davlat qaysi kollizion normaga yuzlanishi borasida ikki xil yo'ldan boradi. Adabiyotlarda yozilishicha, shaxslarning nikoh tuzishga layoqatliligi shartini belgilash-da, aksariyat mamlakatlar jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni (lex personalis) mezonining kumulyativ harakatini keng qo'llaydilar. Ya'ni nikohlanuvchilarning har biriga nisbatan o'zining shaxsiy qonunida belgilangan moddiy-huquqiy normalar qo'llanadi. Ammo turli huquq tizimlarida jismoniy shaxsning shaxsiy qonunini belgilashda turli mezonlarga tayanadilar. Roman-german huquq tizimiga mansub davlatlarda jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni fuqarolik (lex patriae) qonuni hisoblansa, anglo-sakson huquq tizimiga mansub davlatlarda yashash joy qonuni (lex domicilii) hisoblanadi. Hatto bir xil huquq tizimiga oid davlatlarda ham ushbu mezonlar turlicha shakllantiriladi.<sup>1</sup> Demak, nikoh munosabatlarida jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni fuqarolik qonuni yoki yashash joy qonuni hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida bunday munosabatlarda shaxsiy qonunning yashash joyi qonuni qo'llaniladi, ya'ni chet el fuqarosi va fuqaroligi bo'lman shaxsning shaxsiy qonunida belgilangan normalar inobatga olinmaydi. Nikohga kirishish va unga layoqatlilikni belgilashda barcha mamlakatlar shaxsiy qonunga tayanadi, biroq uning talqani har bir davlatda har xilcha. Masalan, yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekiston Respublikasi shaxsiy qonun sifatidaq yashash joyi qonuni ustunligiga suyanadi. Saudiya Arabistonida nikohga kirishish Yoshi 13 yosh qilib belgilanagan. O'zbekistonda esa 18

<sup>1</sup> **Xalqaro xususiy huquq:** Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 249-bet.

yoshni tashkil etadi, agar O'zbekiston Respublikasi fuqarosi 13 yoshda Saudiya Arabistonida nikohdan o'tsa, u yerda nikoh qonuniy deb tan olingen taqdirda ham, O'zbekiston qonunchiligiga binoan bu nikoh tan olinmaydi. Chet el fuqarosining 18 yoshga to'lmasdan biror chetda davlatda nikophdan o'tishi va O'zbekistonga kelganda fuqarolik qonuninga emas, yashash joyi qonuniga tayanganligi uchun chet el fuqarosining shaxsiy qonunida qanday normalar qo'llanilishidan qat'iy nazar O'zbekiston mazkur normalarni tan olmaydi. Ba'zi bir davlatlarda nikohga layoqatlilikni belgilashda aralash huquqdan foydalanadi, ya'ni yashash joyi qonuni qo'llanilsa ham, fuqarolik qonunini ham mutlaqo inkor etmaydi, balki ba'zi chekinishlar, shartlar yoki huquqlarni yashash joyi qonuniga zid kelmagan holatda saqlab qoladi.

Rossiya fuqarosi bilan Bolgariya fuqarosi nikohdan o'tayotgan bo'lsa, Rossiya fuqarosiga Rossiya Federatsiyasi Oila kodeksining 12–15-moddalarida belgilangan shartlar qo'llansa, Bolgariya fuqarosiga Bolgariya Oila kodeksida belgilangan shartlar va monelik qiluvchi holatlar qo'llaniladi, agar ushbu monelik qiluvchi holatlar Rossiya E'tibor bering!

Shaxslarning nikoh tuzishga layoqatliligi shartini belgilash-da, aksariyat mamlakatlar jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni (lex personalis) mezonining kumulyativ harakatini keng qo'llaydilar. Ya'ni nikohlanuvchilarning har biriga nisbatan o'zining shaxsiy qonunida belgilangan moddiy-huquqiy normalar qo'llanadi. Ammo turli huquq tizimlarida jismoniy shaxsning shaxsiy qonunini belgilashda turli mezonlarga tayanadilar. Roman-german huquq tizimiga mansub davlatlarda jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni fuqarolik (lex patriae) qonuni hisoblansa, anglo-sakson huquq tizimiga mansub davlatlarda yashash joy qonuni (lex domicilii) hisoblanadi. Hatto bir xil huquq tizimiga oid davlatlarda ham ushbu mezonlar turlicha shakllantiriladi.

Oila kodeksiga berilgan qisqacha sharhlarda ta'kidlanganidek, "...chet el qonunini qo'llamaslik, fuqarolik qonuni muhim ahamiyat kasb etgan xorijiy mamlakatlarda, Rossiya muassasalarining tegishli hujjatlarini tan olinmasligi yoki realizatsiya qilinmasligiga, "oqsoq" nikohning, ya'ni bir davlatda tan olinib, ikkinchi davlatda tan olinmaydigan nikohlarning yuzaga kelishiga olib kelayotgan edi"<sup>2</sup> Demak, bir davlatda tan olinib, ikkinchi davlatda tan olinmagan nikoh munosabatlariga bir nom bilan "oqsoq" nikoh deya ta'rif berishimiz mumkin. Qaysidir davlatda tan olinib boshqalarida tan olinmasligi bir qarashda oddiy fuqaroga hech qanday ahamiyatga ega emasday ko'rinishi mumkin, biroq har xil davlatlarda keng fuqarolik muomilasiga kirishulganda, qanchalik ahamiyatliligi namoyon bo'ladi. Masalan, bir davlatdagi nikoh ikkinchi davlatda tan

<sup>2</sup> **Xalqaro xususiy huquq:** Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 250-bet.

olinmasa, hech kim ularni rasmiy er-xotin deb tan olmaydi, shu sababli ba’zi bir mehmonxonalarda xatto ularga alohida-alohida xona ajratishlari yoki notarial faoliyatni O’zbekistonda alamga oshirm oshirmoqchi bo’lgan O’zbekiston va chet el fuqarosi chet davlat qonunchiligi bo’yicha nikoh yoshiga yetib turmush qurishgan, chet davlat qonunchiligi bo’yichga esa tan olinsa-yu, O’zbekistonga kelib oldi-sotdi shartnomasini rasmiylashtirmoqchi bo’salar, ular O’zbekiston qonunchiligi bo’yicha nikoh yoshiga yetmaganliklari tufayli er-xotin deb tan olinmaydi va oldi-sotdi shartnomasida xotinning roziligi talab qilinmasligi mumkin. Sababi ular yashash joyi qonuni qo’llanilishi bo’yicha er-xotion hisoblanishmaydi, garchi chet davlatda buni aksi bo’lsa ham.

Shu o’rinda savol tug’ilishi tabiiy: “chet davlatlarda notarial harakatlar va fuqarolik dalolatnomalarini rasmiylashtirish kabi vazifalarni qaysi organ O’zbekiston Respublikasi fuqarolariga xizmat ko’rsatadi”. 1926-yilda O’zbekistonda turli davlatlarda konsullik idoralarini ochish to’g’risida qaror imzolangan. Shundan buyon bir qancha shaharlardan konsullik muassalari faoliyat yuritmoqda. Nikoh munosabatlariga aloqador harakatlarni ham aynan konsullik muassasalari amalga oshiradi. Mazkur nikohlar konsullik nikohlari deb yuritiladi va 1963-yildagi Vena konvensiyasi qoidalariga , shuningdek, bir qancha xalqro shartnoma va kelishuvlarga asoslanib ish yuritadi.

Konsullik nikohlarining quyidagi ikki ko’rinishi mavjud:

1. Chet mamlakatda yashayotgan chet el fuqarolarining nikohlari konsullik muassasasi yoki elchixonada qayd etilishi mumkin.
2. Chet el fuqarolarining nikohlari O’zbekiston Respublikasi hududida joylashgan konsullik muassasasi yoki elchixonada qayd etilishi mumkin.<sup>3</sup>

Konsullik nikohlari konsullik muassasasi ochilgan xorijiy davlatda ham tan olinishi kerak, aks holda O’zbekiston ham mazkur davlat fuqarolariga nisabatan retorsiyani qo’llaydi. Konsullik nikohlarining ham alohida shartlari mavjud, agar fuqarolardan biri konsullik muassasasi ochilgan davlat fuqarosi bo’lsa, konsullik nikohlariga yo’l qo’yilmaydi, ya’ni o’sha davlatning vakolatli idoralari tomonidan nikoh rasmiylashtiriladi. Shu sabab konsullik nikohlari qayd etilishi uchun ikkala shaxs ham konsul tayinlagan mamlakat fuqarosi bo’lishi talab etiladi. Fuqarolardan biri konsullik joylashgan davlat fuqarosi bo’lgansa, har qanday davlat fuqarosining fuqaroviy munosabatlarga kirishishini ta’milaganligi uchun ham nikohning konsullik muassasalarida qayd etilishi mantiqqa ham to’g’ri kelmaydi.

Nikoh munosabatlarida Yaponiya tajribasini ko’radigan bo’lsak, Yaponiya Fuqarolik Kodeksi 731-moddasida nikoh yoki erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun esa 16 yosh qilib belgilangan. O’zbekistonda erkak va ayollar uchun nikoh Yoshi 18 yosh. Bundan tashqari Yaponiyada nikohi bekor qilingan ayol 6 oy muddat ichida boshqa

<sup>3</sup> Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 252-bet.

nikohga kirishishi mumkin emas.<sup>4</sup> Bizda esa bunday norma mavjud emas. Agar Yaponiya fuqarosi O'zbekistonda doimiy yashab nikoh bekor qilingandan so'ng 6 oy o'tmasdan qayta turmuash qursa, O'zbekistonda yashash joyi qonuni amal qilingani tufayli nikoh tan olinadi, biroq Yaponiyada bu nikoh tan olinmaydi. Chunki bu Yaponiya fuqarolik qonunchiligiga zid hisoblanadi. Shuningdek, Yaponiyada ham konsullik nikohlari mavjudligini ko'rishimiz mumkin, Yaponiya Fuqarolik Kodeksining 741-moddasiga ko'ra, xorijiy davlatdagi ikki yapon fuqarosi turmushga chiqmoqchi bo'lsa, ular nikohlarini rasmiylashtirish uchun Yaponiya elchisi, Yaponiya elchixonasi vaziri yoki ushbu mamlakatda joylashgan konsulga ariza berishlari mumkin.<sup>5</sup>

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyada ham nikoh munosabatlariga doir alohida moddalar ajratilgan bo'lib, 16-moddasiga muvofiq, balog'at yoshiga yetgan erkak va ayol irqi, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, nikohga kirishishga haqli. Nikohdan o'tishda va uni bekor qilishda uklar bire xil huquqdan foydalanishi belgilangan. Ushu deklaratsiyada ko'rib turganimizdek, balog'at yoshiga yetgan erkak va ayol deyilgan, biroq ularning aynan yoshi belgilanmagan, chunki deklaratsiyaga a'zo davlatlarda balog'at yoshi har xil belgilangan.

Nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari e'tibor qaratadigan bo'lsak, O'zbekiston qonunchiligidagi nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari Oila Kodeksining 49-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, soxta nikoh tuzilganda, nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda, agar ikkinchisi sudga shunday talab bilan murojaat etganda, shuningdek, nikoh yoshi, nikoh tuzishning ixtiyoriyligi va nikohga monelik qiluvchi holatlar mavjudligi holatlari aniqlanganda nikoh haqiqiy ema deb topiladi.<sup>6</sup> Xalqaro xususiy huquqda nikohni haqiqiy emas deb topish bo'yicha alohida norma mavjudmi, degan savol tug'ilishi tabiiy. 1966-yildagi Minsk konvensiyasiga binoan nikohni haqiqiy emas deb topishda nikohni qayd etishda qo'llanilgan ahslashuvchi tomonning qonun normalari qo'llaniladi degan norma mavjud.<sup>7</sup> Demak, guvohi bo'lGANIMIZDEK, chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh munosabatlarida nikohni haqiqiy emas deb topish bo'yicha alohida norma mavjud emas, balki kollizion norma bo'lib, ahslashuvchi davlat qonunchiligi qo'llanilishi bilan bog'liq qoida mavjud.

Chet el elementi bilan murakkablashgan nikoh munosabatlarida keyingi masala nikohni tugatish hisoblanadi. Ma'lumki, nikohni haqiqiy emas deb topish bilan nikohni tugatish bir-biridan faqrli tushuncha. Nikohni haqiqiy emas deb topish nikoh tuzilgandan boshlab haqiqiy emaslik oqibatini keltirib chiqarsa, nikohni tugatish –

<sup>4</sup> Japanese Civil Code Part IV-V. [https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4275/en#je\\_pt1ch2sc1sb1at11](https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4275/en#je_pt1ch2sc1sb1at11)

<sup>5</sup> Japanese Civil Code Part IV-V. [https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4275/en#je\\_pt1ch2sc1sb1at11](https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4275/en#je_pt1ch2sc1sb1at11)

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi <https://lex.uz/docs/-104720#-158625>

<sup>7</sup> Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiyl tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 254-bet.

nikoh sud tomonidanm tugatilgandan boshlab bekor qilinadi, tugatilmasdan oldingi nikoh munosabatlari esa bekor qilinmaydi.

Nikohdan ajratish asoslarining turli mamlakatlarda turlichal belgilanganligi, chet el elementi bilan murakkablashgan nikohdan ajratish munosabatlarini hal qilishda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Xususan, nikohdan ajratishga yo'l qo'yish-qo'yilmaslikni qaysi mamlakat moddiy qonunchiligi asosida hal etish; er-xotinlar turli fuqarolikka mansub bo'lganda qanday yo'l tutish; ommaviy tartib qoidalarini qaysi holatlarda qo'llash va h.k. Turli fuqarolikka ega bo'lgan er-xotinlarning yoki bir fuqarolikka ega bo'lgan chet el fuqarolarini nikohdan ajratish nafaqat qonunni tanlashning kollizion muammosi bilan balki muhim ahamiyatga ega bo'lgan nikohdan ajratish ishining qaysi mamlakat sudloviga tegishliligin belgilovchi protsessual muammo bilan ham bog'liq bo'ladi.<sup>8</sup> Demak, nikohni tugatishda kollizion normani topish va protsessual harakatni qanday, qaysi mamlakat sudi orqali amalga oshirish birmuncha murakkab masala hisoblandi. Nikohdan ajratish masalalari 1993-yildagi Mnsk konvensiyasi normalarioga asosan, tartibga solinadi. Mazkur masalada sudlovga tegishlilik er-xotinning fuqaroligiga, doimiy yashash va turar joylariga qarab belgilandi.

Xulosa, chet el elementi bilan muarakkablashgan nikoh munosabatlari bir davlatning ichidagi nikoh munosabatlariga qaraganda, birmuncha murakkablikka ega ekanligini ko'rib chiqdik. Mazkur munosabatlarda asosiy masala kollizion norma qaysi mamlakat qonunchiligi bo'lishi mumkinligida va nikohdan o'tkazish, nikohni tugatish yoki uni haqiqiy emas deb topish qaysi davlat organlari zimmasiga yuklatilganligida. Bunday masalalarga yechim topish ancha murakkab va uzoq vaqt ni qamrab oladi. Ayniqsa, aralash nikohlarning mavjudligi vaziyatni yanada chigallashtiradi. Fikrimcha, bu kabi murakkabliklarning oldini olish uchun Xalqaro miqyosda nikoh munosabatlarini xalqaro darajada barcha davlatga ma'qul keladigan normalarni qo'llay oladigan tashkilot tuzilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Nikoh munodabatlarida chigalliklar yuzaga kelganda ikinchi muqobil yechim sifatida xalqaro miqyosdagi tashkilotga murojaat qilinishi kerak. Shunda, nikoh munosabatlarida murakkabliklar ancha kamayadi va muammoni hal qilish muddati ham ancha qisqaradi.

### **FOYDALANILGAN MANBALAR RO'YXATI:**

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
2. Fuqarolik, oilaviy va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi Minsk Konvensiyasi
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

<sup>8</sup> Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiyl tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019. – 256-bet

# PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

6 – TOM 11 – SON / 2023 - YIL / 15 - NOYABR

5. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi
6. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi <https://lex.uz/docs/-104720#-158625>
7. Japanese Civil Code Part IV-V.  
[https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4275/en#je\\_pt1ch2sclsblat11](https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4275/en#je_pt1ch2sclsblat11)
8. Japanese Civil Code Part IV-V.  
[https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4275/en#je\\_pt1ch2sclsblat11](https://www.japaneselawtranslation.go.jp/en/laws/view/4275/en#je_pt1ch2sclsblat11)
9. Xalqaro xususiy huquq: Darslik / Mualliflar jamoasi || y.f.d., dots.
- I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. –T.: TDYU, 2019.
10. Лукашук И.И. Международное право. Особенная часть: Учебник